



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

*2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



Mamlakatimizda oxirgi yillarda tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatilayotgan e'tibor

Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.


Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2020-yil 1-avgust holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



Mamlakatimizda qulay ish-bilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Korxonalar va tashkilotlar soni

(2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



Yuridik shaxs:

Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot **yuridik shaxs** hisoblanadi.

Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)

11 914



Mas'uliyati cheklangan jamiyat

1 409



Oilaviy korxonona

119



Unitar korxonona

3 373



Xususiy korxonona

27




Aksiyadorlik jamiyati

259




Boshqa korxonalar

mas'uliyati cheklangan jamiyat
birlikda



xususiy korxonona
birlikda




Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagani ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2020-yil 1-avgust holatiga ko'ra)




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



Aksiyadorlik jamiyati:


Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat -aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi; -aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'lamagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha, o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida, jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni


(yanvar-iyul oylarida, birlikda)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-iyul oylarida)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi (2020- yil yanvar-iyul oylarida, umumiy sonidagi ulushi)




2020- yilning yanvar- iyul oylarida 2 270 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar - 1 512 ta, xususiy korxonalar - 227 ta, oilaviy korxonalar - 360 ta, muassasalar - 45 ta va boshqalar - 126 tani tashkil etdi.

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi (2020-yil 1-avgust holatiga ko'ra)



Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (2020-yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda)




2020-yil 1-avgust holati ga ko'ra sanoat korxonalari va tashkilotlari soni 2 546 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 115,0 % ga oshdi.

Jami sanoat korxonalari va tashkilotlari ko'payishining asosiy omili – (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 114,3 % ga (jami sanoatdagi ulushi 90,3 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 120,1 % ga (jami sanoatdagi ulushi 6,8 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 145,8 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,4 %) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish – 121,9 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,5 %) o'sishidir.

Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)




2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 2 235 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 110,8 % ga oshdi. Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu – bino va inshootlar qurishda – o'tgan yilga nisbatan 104,1 % ga (jami qurilishdagi ulushi 59,8 %), fuqarolik obyektlarini qurish – 125,9 % ga (jami qurilishdagi ulushi 8,9 %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari – 121,4 % ga (jami qurilishdagi ulushi 31,3 %) o'sishidir.


Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)

2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra savdo sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 4 761 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 118,1 % ga oshdi. Jami savdo korxonalar va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili – avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan – 121,5 % ga (jami savdodagi ulushi 8,1 %), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan – 107,2 % ga (jami savdodagi ulushi 22,2%), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash o'tgan yilga nisbatan – 121,7 % ga (jami savdodagi ulushi 69,7 %) o'sishidir.



Oilaviy korxonalar soni (2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020- yilning 1- avgust holatiga ko'ra 1 409 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 455 taga yoki 147,7% ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 1 342 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 410 taga yoki 144,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2020- yil yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 360 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 84 taga yoki 130,4% ga oshganligini ko'rish mumkin.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)


Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2020- yilning 1- avgust holatiga ko'ra 11 914 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 887 taga yoki 118,8 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 11 386 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 589 taga yoki 116,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yil yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 1 512 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 354 taga yoki 19,0% ga kamayganligini ko'rish mumkin.




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni (2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra 164 tani tashkil etib, ulardan 160 tasi yoki 97,5 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 24 taga yoki 117,6 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2020- yil yanvar-iyul oylarida 7 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-iyul oylarida, birlikda)




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni

(2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)

	2016- yil	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil
Jami	66	73	96	135	160
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	13	13	26	34	39
Sanoat	40	43	47	62	83
Qurilish	3	3	3	4	5
Savdo	6	9	14	22	19
Tashish va saqlash			1	2	1
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2	2	1	3	4
Axborot va aloqa					
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1	1	2	3	3
Boshqa turlar	1	4	2	5	6

Tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2020-yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda)




**Tumanlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
Qoraqalpog'iston Respublikasi	160	92	68
<i>tumanlar:</i>			
Amudaryo	5	2	3
Beruniy	10	3	7
Bo'zator	2	1	1
Qorao'zak	11	8	3
Kegeyli	7	5	2
Qo'ng'iroq	7	5	2
Qanliko'l	6	3	3
Mo'ynoq	25	18	7
Nukus	10	8	2
Taxiatosh	11	3	8
Taxtakopir	6	4	2
To'rtko'l	4	3	1
Xo'jayli	4	1	3
Chimboy	5	3	2
Shumanay	5	2	3
Ellikqal'a	6	4	2
Nukus sh	36	19	17

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Nukus shahrida 36 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 22,5 %), Mo'ynoq 25 ta (15,6 %), Taxiatosh va Qorao'zak tumanlarida 11 tadan 6,9 %) hamda Beruniy va Nukus tumanlarida 10 tadan (6,3 %) tashkil etadi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni

(2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar tumanlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Nukus shahri (29,5 %), To'rtko'l (10,4%), Beruniy (8,2 %), Amudaryo (7,2 %), Ellikqala (6,1 %), Q'ong'rot (5,5 %), Xo'jayli (5,0 %), Nukus (4,6 %), Chimboy (3,7 %), Tatiatosh (3,3 %), Qorao'zak (3,0 %), Kegeyli (2,7%), Qanliko'l (2,6 %), Mo'ynoq va Shumanay tumanlarida (2,5 %) dan, Taxtakopir (2,1 %) Bo'zatov (1,1 %) tumanlari hissariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni


(2020- yil yanvar-iyul oylarida, birlikda)

2020- yil yanvar- iyul oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar tumanlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Nukus shahrida (21,5%), To'rtko'l (10,5 %), Beruniy (6,3 %), Xo'jayli (5,9 %), Ellikqala (5,8 %), Q'ong'rot va Nukus (5,7 %) dan, Amudaryo (5,6 %), Taxiato'sh (4,4 %), Taxtakopir (4,3 %), Mo'ynoq (4,0 %), Chimboy (3,5 %), Bo'zatov (3,8 %), Shumanay (3,4 %), Kegeyli (3,0 %) hamda Qanliko'l va Qorao'zak (3,3 %) dan tumanlar ulushiga tegishli.




Tumanlar kesimida har 1000 oilaga to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlari soni¹⁾

(2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



Hududlar kesimida har 1000 aholiga to'g'ri keladigan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni²⁾

(2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)




¹⁾ 2020-yil 1-yanvar holatiga ko'ra tumanlar (shaharlar) fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha kengashlari ma'lumotlari asosida jamlangan.

²⁾ Doimiy aholi soni 2020-yil 1-iyul holatiga ko'ra shakllantirilgan


Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining tumanlar kesimidagi soni

(2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning tumanlar kesimidagi soni


(2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



2020-yil 1- avgust holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar tumanlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Nukus shahrida (35,0 %), To'rtko'l (11,4 %), Beruniy (7,2 %), Amudaryo (6,3 %), Nukus (5,7 %), Xo'jayli (4,8 %), Q'ong'rot (4,7 %), Ellikqa'la (4,2 %), Chimboy (3,7 %), Qorao'zak (3,4 %), Mo'ynoq va Kegeyli (2,8 %) dan, Taxiatioh (2,4 %), Qanliko'l (1,7 %) Shumanay (1,6%), Taxtako'pir (1,2 %) va Bo'zatov (1,1 %) tumanlar hissasiga tegishli.

Tumanlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar taqsimlanishi


(2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)



2017- 2021 yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining tumanlar bo'yicha soni


(2020- yilning yanvar-iyul oylarida, birlikda)




2020- yilning yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar, tumanlar kesimida taqsimlanganda Taxtako'pir (18,9 %), Amudaryo (11,4 %), Nukus,sh (11,1 %), To'rtko'l (10,0 %), Qanliko'l (9,4 %), Beruniy (8,1 %), Taxiatosh (5,3 %), Ellikqal'a (5,0 %), Xo'jayli (4,7 %), Qorao'zak (3,6 %), Nukus (3,3 %), Qo'ng'iro't (3,0 %), Mo'ynoq (2,5 %), Shumanay (1,7 %), Chimboy (0,8 %), Kegeyli va Bo'zatov (0,6 %) dan tumanlar ulushga ega.

Tumanlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2020- yilning yanvar-iyul oylarida, birlikda)



O'tgan yilga nisbatan % da



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Statistik registrnlarni yuritish
bo'limi.
Tel.:61 224-92-09**